



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



## MATBUOT FUNKSIYALARINING AMALGA OSHISHIDA JURNALISTNING VAZIFALARI

**Hasanboy Madolimov**

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Tel: +998975938293

E-mail: madolimovhasanboy@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15378925>

**Annotatsiya.** Maqolada jurnalistikaning asosiy funksiyalari – tasvir, tahlil va ta'sir haqida so'z yuritilib, jurnalist kasbining ijodiy va ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari tahlil etiladi. Shuningdek, jurnalistikaning huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy asoslari, uning jamiyatga ta'siri, matbuotning bosh tamoyillari va jurnalistning kasbiy odobi haqida fikr yuritiladi. Maqola jurnalistik janrlar, jurnalist mehnatining tarkibiy qismlari va ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi roli haqida muhim xulosalar beradi.

**Kalit so'zlar:** tahlil, jurnalistika, jurnalist, funksiya, matbuot, ijtimoiy-siyosiy, ta'sir, ommaviy axborot vositalari, ma'naviy-axloqiy.

**Аннотация.** В статье рассматриваются основные функции журналистики — имиджевая, аналитическая и влияющая, а также анализируются творческие и социально-политические характеристики журналистской профессии. В книге также рассматриваются правовые, экономические и моральные основы журналистики, ее влияние на общество, основные принципы прессы и профессиональная этика журналиста. В статье сделаны важные выводы о журналистских жанрах, компонентах журналистского труда и роли СМИ в обществе.

**Ключевые слова:** анализ, журналистика, журналист, функция, пресса, общественно-политический, влияние, СМИ, духовно-нравственный.

**Annotation.** The article discusses the main functions of journalism - image, analysis and influence, analyzes the creative and socio-political features of the journalistic profession. It also discusses the legal, economic and moral foundations of journalism, its impact on society, the main principles of the press and the professional ethics of a journalist. The article makes important conclusions about journalistic genres, components of journalistic work and the role of the media in society.

**Key words:** analysis, journalism, journalist, function, press, socio-political, influence, media, moral and ethical.

### KIRISH

Ijtimoiy hayotni aks ettirishdan iborat bo'lgan tasvir, uning ichki mohiyatini ochib berish – tahlil va har ikki jihatlarning pirovard maqsadi bo'lgan ta'sir kabilar insoniyat tomonidan kashf etilgan obyektiv qonuniyatlar bo'lib, ular o'z navbatida jurnalist kasbiga ega bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Ma'lumki, jurnalist kasbi, avvalo, ijodiy kasb sanalib, ijtimoiy hayotni birinchi navbatda so'z va boshqa texnik vositalar bilan aks ettirishni taqozo qiladi. Binobarin, bu kasb kishidan alohida bir ijodiy layoqat, iste'dodni talab etadi. Turgan gapki, jurnalist kasbi uchun zarur bo'lgan



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



iste'dod va layoqatning o'zigina yetarli bo'lmasdan, bu doimiy ravishda aqliy mehnat bilan qo'shib ketadi. Talantli, mehnatkash, izlanuvchan jurnalistlar doimo hayotdan zarur fakt va voqealarni izlab topish, mavzu belgilash va eng muhimi hayotning turli masalalari xususida yorqin, dolzarb materiallar yozish bilan o'z xizmat vazifalarini bajaradilar va matbuotning funksiyalarini bajarishda ishtirok etadilar. Talantsiz, loqayd, ishyoqmas jurnalist hech qachon yaxshi material yozolmaydi va elga tanila olmaydi. "Jurnalist subyekt sifatida harakatini obyekt – ommaviy auditoriyaga qarab yo'naltiradi. Bu yerda gap bevosita ta'sirchanlik haqida ketyapti. Jurnalist mehnatining mahsuli bo'lgan jurnalistik asarlar: maqolalar, reportajlar, radio va teledasturlar, filmlar auditoriyaga turlicha ta'sir ko'rsatadi"<sup>1</sup>.

Jurnalistika kasbi shu bilan birlikda ijtimoiy-siyosiy xususiyatga ham egadir. Ya'ni, har bir jurnalist ma'lum bir davrga, shu davr oldida turgan ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritadi va bu bilan jamiyatga xizmat qiladi.

"Matbuot va hukumat o'rasidagi munosabat talqiniga jurnalistlar, soha mutaxassislari doimiy e'tibor qaratib kelishadi. Ayrimlar matbuotni hukumatning maslahatchisi deb qabul qiladi. Boshqalar matbuot vazifasini hukumatning o'z saylovchilariga hisobot berib turishini ta'minlashda deb biladi. Ularning fikricha, hukumat yaxshi bo'lsa, uni maqtab yozish kerak, agar uning faoliyatida salbiy holatlar kuzatilsa, buni ham ochiqchasiga aytish zarur"<sup>2</sup>.

Har bir tarixiy davr jurnalist oldiga o'z talablarini qo'yadi. Bu esa jurnalistdan o'zi yashayotgan davrning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini yaxshi bilish, o'z vataniga, o'z xalqiga sidqidildan xizmat qilish vazifasini qo'yadi. Jurnalistika kasbining ijtimoiy-siyosiy xususiyati har bir jurnalistdan chuqur bilimli bo'lish, hayotni teran anglash va shu davr talablariga javob beradigan ilg'or dunyoqarashga ega bo'lishni ham taqozo etadi. Shu o'rinda jurnalistikada qo'llaniladigan jurnalistikaning struktura funksiyalari agenda setting, framing va gatekeeping ijtimoiy-siyosiy masalalarning eng muhimlarini yoritishda va ularning ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Albatta, bunda jurnalistning kuzatuvchanligi, izlanuvchanligi, bilim saviyasi asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, "ayrim ocherknavislar ma'rifiy maqsadni ustuvor deb biladi. Inson va jamiyat munosabatlarini sotsiolog, publitsist sifatida tadqiq qiladi. Muayyan jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlar shu jamiyat a'zolarining tiynatiga, xulq-atvoriga, ma'naviy-axloqiy xususiyatiga, xatti-harakatlariga qay darajada ta'sir ko'rsatishini o'rganib, bu borada kamchilik yoki chetga chiqishlar yuz berayotgan bo'lsa, to'g'ri yo'l izlashga ko'maklashadi. Bunda

<sup>1</sup> Журналистика: назарияси, тарихи ва taraqqiёti. I жилд. – Тошкент, "O'zbekiston", 2019. 584 бет. 50-бет.

<sup>2</sup> Раҳматуллаев Т. Матбуот ва демократия. www.ziyouz.com kutubxonasi 102-бет.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



publitsist insonning ma'naviy yuksalib borishini, uning o'zi yashayotgan jamiyatga qarashini, munosabatini, ruhiy holat manzaralarini, bir jamiyatda yonma-yon yashayotgan insonlarning o'zaro muloqot-munosabatlarini u yoki bu jihatdan tadqiq etishga intiladi”<sup>3</sup>.

Jurnalistika funksiyalarining jurnalistlar tomonidan bajarilishida matbuotning bosh tamoyillari ham muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, matbuotning bosh tamoyillari ham davr, jamiyatning matbuot oldiga qo'ygan talablaridan kelib chiqadi. Masalan, yaqin o'tmishda hukm surgan kommunistik matbuotda voqea va hodisalarga faqat sinfiy nuqtai nazardan qarash talab etilar va buning muayyan ko'rinishi bo'lgan partiyaviylik ommaviy axborot vositalari faoliyatining bosh talabi, qonuni hisoblanar edi. Mamlakatimiz o'z milliy mustaqilligiga erishgach respublikamiz matbuoti davr talablariga mos ravishda yangi tamoyillar asosida ish ko'ra boshladi. Umuminsoniylik, xalqchilik, milliylik, haqqoniylik, xolislik kabi tamoyillar matbuotimiz faoliyatining bosh tamoyillariga aylandi va ular matbuotning asosiy funksiyalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Faqat mazkur tamoyillarga tayanib ish ko'ruvchi jurnalistgina matbuot funksiyalarini bajarishda muvaffaqiyatga erisha oladi va shaksiz jamiyatimizga xizmat qila oladi.

Jurnalistika funksiyalarini bajarishda jamoatchilik fikri ham muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, jamoatchilik fikri jamiyat hayotini boshqarishda ahamiyatli vazifani bajarar ekan, u asosan ommaviy axborot vositalari faoliyatida namoyon bo'ladi. Agar jurnalist o'z materiallarida jamoatchilik fikriga amal qilsa, hayotdan olingan fakt, voqea va hodisalar haqida ko'pchilikning fikrini uyg'ota olsagina o'z vazifasini bajaradi, jurnalistika funksiyalarini ado etishda qatnashadi.

Ma'lumki, jurnalist mehnatining uch asosi va uch tarkibiy qismi mavjuddir. Uch asos – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlardan iborat bo'lib, jurnalist faoliyatining bosh mezonini belgilab beradi. Ijtimoiy-siyosiy asos har bir jamiyatda jurnalistik faoliyatni olib borish uchun yaratilgan ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va boshqa asosiy masalalar bo'lib, bu masala jamiyatning bosh Qonuni – Konstitutsiyada va bu sohaga qaratilgan maxsus qonunlarda o'z aksini topadi va ommaviy axborot vositalari ana shu qonunlar asosida ish olib boradi. Milliy mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini belgilovchi mustahkam ijtimoiy-siyosiy asos yaratildi. Chunki “ijtimoiy tizim o'zgarisa, ommaviy axborot vositalarida ham o'zgarishlar bo'ladi.” “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi, – deb ta'kidlanadi O'zbekiston Respublikasi

<sup>3</sup> Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент, “O'zbekiston”, 2019. 510 бет. 372-бет.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Konstitutsiyasining 67-moddasida. – Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi"<sup>4</sup>. Mamlakatimizda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida (yangi tahrir)", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" va boshqa qonunlar ommaviy axborot vositalarining faoliyatini belgilashda asosiy o'rinni egallaydi va jurnalist mehnatining ijtimoiy-siyosiy asosini belgilaydi. Bu qonunlar jurnalistlar uchun ommaviy axborot vositalarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish bilan birlikda matbuot funksiyalarining bajarilishida huquqiy poydevor, dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. "Agar jurnalist bo'lmagan fakt yoki hodisani bo'lgan desa, bo'layotgan faktlar yoki hodisalarni bo'lmadi, deb tursa yoki ko'rmaslikka olsa, uning tahlillaridan kimning manfaatini himoya qilayotgani yaqqol bilinsa, ommaviy axborot vositasining yoki muayyan maqola, eshittirish yoki ko'rsatuv "homiysi"ning qulog'i matndan ko'rinib tursa, jurnalistikaning demokratik jamiyatda bajaradigan vazifasiga, ommaviy axborot vositasining obro'siga va, oxir-oqibatda, jurnalist kasbining mavqeiga putur yetadi.

Bu sanab o'tilgan konstitutsiyaviy huquqlarni jurnalist hurmat qilishi lozim. Zero, jurnalist kasbi taqozosi bilan bu yerda qo'yilgan chegaralarga juda yaqin kelishiga ko'p bor to'g'ri keladi - u odamlarning turar joyiga tashrif buyuradi, ular bilan suhbat quradi, shaxsiy va ijtimoiy hujjatlarni, ariza va shikoyatlarni, xatlar va tasvirlarni ko'zdan kechiradi... Jurnalistning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasb faoliyati undan qonunlarni juda yaxshi bilishini talab qiladi"<sup>5</sup>.

Jurnalist mehnatining iqtisodiy asosi esa ommaviy axborot vositalarida ishlovchilarga beriladigan maosh, qalam haqi va boshqa to'lov mablag'laridan iborat bo'ladi. Bu esa tabiiyki, jurnalist faoliyatining ko'zga ko'rinmas, ammo muhim asosini tashkil etadi. Jurnalist matbuot funksiyalarini bajarishda qanchalik samarali mehnat qilar ekan – shunga yarasha haq olishi lozim. Mamlakatimizda jurnalist mehnati qadrlanadi, ularga maosh bilan birlikda har bir materiali uchun alohida qalam haqi – gonarar ham to'lanadi. Bundan tashqari o'z kasbini puxta egallagan, qalami o'tkir jurnalistlar har tomonlama taqdirlanadilar. Respublikamizda har yili o'tkaziladigan "Oltin qalam" ijodiy tanlovi va boshqa ko'rik-tanlovlar fikrimizning isbotidir. Ko'plab jurnalistlarimiz o'zlarining turli janrlarda yozgan materiallari uchun ana shu tanlov g'oliblari bo'lmoqdalar, sharaflanmoqdalar.

Jurnalist mehnatining uchinchi asosi – bu kasbning ma'naviy jihati bo'lib jurnalistning dunyoqarashi, e'tiqodi, ichki dunyosi bilan bog'liqdir. Qaysi bir jurnalist

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 21-бет.

<sup>5</sup> Журналистика: хуқуқи ва этикаси. V жилд. – Тошкент, "O'zbekiston", 2019. 240 бет. 188-бет.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



dunyoni chuqur anglasa, ma'naviy olami boy bo'lsa, eng ilg'or dunyoqarashga tayansa, uning muvaffaqiyati ta'minlangan bo'ladi. O'z milliy mustaqilligiga ega bo'lgan respublikamizda jurnalistlar milliy istiqol g'oyasiga asoslangan holda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy islohotlarni amalga oshirish uchun kurashda ilg'or saflarda bormoqdalar. O'z yurtiga, o'z vataniga, xalqiga xizmat qilayotirlar.

Jurnalist mehnatining uch tarkibiy qismiga kelsak, bu ma'lumki, jurnalistlar faoliyatining uch qirrasini tashkil etadi. Bu avvalo mualliflik, muharrirlik va tashkilotchilikdan iboratdir. Ommaviy axborot vositalarida ishlaydigan har bir jurnalist avvalo muallif sifatida ma'lum bir janrlarda material yozadi, chop ettiradi va shu yo'l bilan matbuot funksiyalarining bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Muharrir sifatida esa ommaviy axborot vositalariga kelayotgan xatlar, boshqa mutaxassislarining materiallarini tahrir qilib, chop etish uchun tayyorlaydi. Albatta, bu jihat ham o'sha matbuot materialining o'quvchiga manzur bo'lishida, pirovard natijada esa matbuot funksiyalarining bajarilishida muhim rol o'ynaydi. Jurnalist mehnatining uchinchi qirradi esa uning tashkilotchiligi bo'lib, jurnalistning o'z materiallarining samaradorligi uchun kurashishi, hayotda faol pozitsiyada turishi, redaksiyaga yordam so'rab kelgan shikoyatchilar va boshqalarga ma'naviy, huquqiy va boshqa ko'mak berishi bilan belgilanadi. Bu esa matbuotning ta'sir funksiyasiga kiruvchi masalalardir.

Shuni aytish kerakki, jurnalistika kasbi o'z navbatida qator muayyan ko'rinishlarga bo'linib ketadi. Bu bo'linish ma'lum darajada mazkur jurnalistning matbuotning qaysi funksiyasi bilan shug'ullanishini ham belgilaydi. Masalan, joylardan xabar beruvchi muxbirlar (gazeta va jurnallarning o'z muxbirlari, maxsus muxbirlar) ko'proq hayotdagi ma'lum fakt, voqea haqida xabar berish bilan shug'ullanadilar. Bu esa yuqorida ko'rib o'tganimizdek matbuotning tasvir funksiyasi doirasiga kiradi. Shuningdek, voqea va hodisalar borasida tezkorlik bilan, jonli ravishda xabar beruvchi jurnalistlar esa reportyor deb ataladi. Voqea va hodisalar haqida so'rab-surishtirib materiallar yozuvchilar esa intervyuchilar deb ataladi. Ko'rinib turibdiki, jurnalistikaning yuqoridagi ichki kasblari bilan shug'ullanuvchilar matbuotning tasvir funksiyasi doirasida ish ko'radilar, hayot voqealarni tasvirlaydilar, aks ettiradilar.

Respublikamiz ommaviy axborot vositalarida ishlovchi jurnalistlar orasida muxbirlar aksariyatni tashkil etsa-da, bevosita xabar janri bilan shug'ullanuvchi, hayotdan qiziq, hammaning e'tiborini tortadigan faktlarni topib, o'quvchilarga yetkazuvchi jurnalistlar yetishmaydi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Bizga hayotning



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



ichiga kirib borib, eng muhim, kishilar e'tiborini tortadigan fakt, voqea va hodisalarni yorqin tasvirlab beradigan xabarchilar kerak. Bunday voqea va hodisalar haqida tezkorlik bilan, jonli xabar beruvchi reporterlar ham yetishmayapti. Holbuki, jahon matbuotida reporterlar asosiy o'rinni egallaydi. To'g'ri, bizda futbol va boshqa sport o'yinlari haqida qiziqarli xabar qiluvchi reporterlar mavjud bo'lsa-da, hayotning boshqa sohalari bo'yicha qiziqarli reportajlar olib boradigan jurnalistlarga talab katta. Jurnalist kasbining sharhlovchi, kuzatuvchi kabi ichki ko'rinishlari esa tahlil funksiyasiga xizmat qilishi ma'lumdir. Ammo sport sharhlovchi va kuzatuvchilaridan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy sohalarni yorituvchi bu kasb egalari ehtiyoj katta.

Ma'lumki, publitsistika matbuot materiallarining o'zagini tashkil etadi. Bu soha bilan shug'ullanuvchilar esa publitsistlar deb ataladilar. Odatda, bu nom asosan publitsistik maqola yozuvchilarga beriladi. Respublikamiz matbuotida mazkur sohada faoliyat yurituvchilar ko'plab topiladi. Masalan, publitsistlardan X.Do'stmuhammad, A.Ibrohimov, A.Meliboev va boshqalarning ijtimoiy hayotning turli masalalariga bag'ishlangan publitsistik maqolalari ko'pchilikka tanish. Bu materiallarda matbuotning tahlil funksiyasi o'z ifodasini topadi va jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga, o'quvchilar ongiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yuqoridagi boblarimizda ko'rib o'tganimizdek badiiy publitsistikaning ocherk janri ham hayotdagi muhim, ibratli voqealar, ma'naviy-madaniy hodisalarni tasvir etishda muhim o'rin tutadi. Ammo badiiy publitsistikaning ocherk janri bilan shug'ullanuvchi ocherkchi jurnalistlar ham tabora kamayib bormoqda. Esse ham badiiy publitsistikaning muhim janrlaridan biridir. Matbuotimizda bosilgan qator esselar, shu jumladan, taniqli adabiyotshunos O.Sharafuddinov, qoraqalpoq adibi T.Qaipberganov, shoir X.Davron qalamiga mansub bo'lgan esselar ijtimoiy hayotning muhim masalalarini ochib berishda katta xizmat qildi. Ammo keyingi paytlarda bu janrda ijod qiluvchilar safi kamayib bormoqda.

Jamiyat hayotida hajviy publitsistikaning o'rni ham beqiyosdir, bu vazifani hajviy jurnalistlar, feletonchilar, pamfletchilar bajarib keladilar. Lekin keyingi paytlarda hajviy publitsistikaning muhim janri bo'lmish feleton bilan shug'ullanuvchi jurnalistlar – feletonchilar ham respublikamiz matbuotida barmoq bilan sanarli, desak xato qilmagan bo'lamiz. Ijtimoiy xavfli bo'lgan kuchlarga qarshi qaratilgan pamflet janri bilan shug'ullanuvchi pamfletchilarni tayyorlash ham muhimligicha qolmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining faoliyat ko'rsatishlari, nashrlarning matbuot funksiyalarini bajarishlarida jurnalistning kasbiy odobi ham muhim o'rin tutadi. Zotan, o'z huquq va burchlarini yaxshi tushungan, jamiyat oldidagi ijtimoiy vazifasini chuqur anglab yetgan jurnalistgina o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi mumkin.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Filologiya fanlari doktori X.Do'stmuhammad o'zining "Jurnalistning kasb odobi muammolari"<sup>6</sup> kitobida jurnalistikada kasb odobi masalalarini umuminsoniy talablar va milliy qadriyatlar mezonlari asosida ko'rib chiqib, qator zaruriy tavsiyalarni berib o'tadi. "Surishtiruvning ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo'llangan birgina noto'g'ri so'z yoki ibora jurnalistning nafaqat obro'iga putur yetkazishi, balki uni javobgar qilib ko'yishi mumkin"<sup>7</sup>. Jurnalistning intervyu olish jarayonidan bir misol keltirsak: jurnalistning intervyu olish jarayonida amal qilishi kerak bo'lgan ko'pgina jihatlar bor. "Hatto so'z ohangi ham intervyu berayotgan kishining kayfiyatiga ta'sir qilishi mumkinligini nazarda tutish lozim"<sup>8</sup>.

Ommaviy axborot vositalarini ko'zdan kechirar ekanmiz, jurnalist kasb-odobiga to'la rioya qilinmagan materiallarni ham ko'rishimiz mumkin. "Mushtum" jurnalining 2019-yil 3-4-sonida bir karikatura berilgan. Unda bir qariya bilan yosh yigit o'rtasidagi savol-javob tasvirlangan. Suratda qariyaning savoli sifatida: "Sitiy nima degani, bolam?". Yosh yigitning javobi: "Sitiy (сытый) – qorni to'q degani, amaki!..." tarzida berilgan. Rasmdagi binolarda "City"ning "Sity" shaklida yozilganligini ko'rish mumkin. "City" so'zi inglizcha bo'lganligi uchun va bu so'z atama sifatida olingan bo'lsa, o'zbek tilida qanday yozilishini mutaxassislardan so'rab bilish kerakligiga muallif e'tibor bermagan.

## XULOSA

Shuni aytish kerakki, ommaviy axborot xodimlari orasida nomunosib hatti-harakatlari bilan jurnalistika kasbi odobiga dog' tushurayotganlar ham uchrab turadi. OAVda matbuot sohasidagi bunday nomunosib xatti-harakatlar, jurnalist kasbi odobiga mos kelmaydigan holatlar vaqti-vaqti bilan aniq misollar bilan berib boriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Журналистика: назарияси, тарихи ва тараққиёти. I жилд. – Тошкент, "O'zbekiston", 2019. 584 бет.
2. Раҳматуллаев Т. Матбуот ва демократия. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
3. Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент, "O'zbekiston", 2019. 510 бет.
4. Weischenberg S., Kriener M. Journalistik. Band 3: Quiz und Forum (Fragen/Antwonen, Diskussion, Evaluation) – Opladen: Westdeutscher Verlag GmbH, 1998.
5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2003.

<sup>6</sup> Дўстмуҳаммад Х. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий методологик таҳлил. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2007.

<sup>7</sup> Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент, "O'zbekiston", 2019. 510 бет. 287-бет.

<sup>8</sup> Ўша манба. 86-бет.



# «XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



6. Журналистика: ҳуқуқи ва этикаси. V жилд. – Тошкент, “O'zbekiston”, 2019. 240 бет.
7. Дўстмуҳаммад Х. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий методологик таҳлил. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2007.
8. Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент, “O'zbekiston”, 2019. 510 бет.